



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

DEVIANT XULQ-ATVOR TURLARI, ULARNING SHAKLLANISHIGA SABAB BO‘LUVCHI OMILLAR VA YOSH BILAN BOG‘LIQ XUSUSIYATLARNING TA‘SIRI

Asqarova Xurshida A‘zamjon qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, o‘qituvchisi (PhD)

Abduqaxxorova Ominabonu Oybek qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada deviant xulq-atvorning shakllari hamda uning shakllanishiga sabab bo‘luvchi va ta‘sir etuvchi omillar ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Xarakter aksentuatsiyalarining deviant xulq-atvor bilan bog‘liqligi va farqli jihatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ijtimoiy muhit, individual-psixologik xususiyatlar va tarbiyaviy omillarning deviant xulq-atvor shakllanishidagi o‘zaro ta‘siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: deviant xulq-atvor, ijtimoiy psixologiya, xarakter aksentuatsiyasi, og‘ma xulq-atvor shakllanishi, ijtimoiylashuv, profilaktika, rivojlanish bosqichlari, addiktiv deviantlik, delinkvent xulq, agressivlik.

ВИДЫ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ, ФАКТОРЫ ЕГО ФОРМИРОВАНИЯ И ВЛИЯНИЕ ВОЗРАСТНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ

Аскарова Хуршида Азамжон кизи

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, преподаватель (PhD)

Абдукажжорова Оминабону Ойбек кизи

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, студентка 4 курса

Аннотация

В статье анализируются формы девиантного поведения, а также факторы, влияющие на его формирование, с социально-психологической точки зрения. Рассматриваются сходства и различия акцентуаций характера и девиантного поведения. Также освещается взаимное влияние социальной среды, индивидуально-психологических особенностей и воспитательных факторов в процессе формирования девиантного поведения.

Ключевые слова: девиантное поведение, социальная психология, акцентуации характера, формирование отклоняющегося поведения, социализация, профилактика, этапы развития, аддиктивная девиантность, делинквентное поведение, агрессивность.

TYPES OF DEVIANT BEHAVIOR, FACTORS OF ITS FORMATION, AND THE INFLUENCE OF AGE-RELATED CHARACTERISTICS

Asqarova Khurshida A‘zamjon qizi

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Teacher (PhD)

Abduqaxxorova Ominabonu Oybek qizi

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, 4th Year Student

Abstract

This article analyzes the forms of deviant behavior and the factors influencing its formation from a socio-psychological perspective. It examines the similarities and differences between character accentuations and deviant behavior. The study also highlights the interaction of

social environment, individual psychological traits, and educational factors in the development of deviant behavior.

Keywords: deviant behavior, social psychology, character accentuation, formation of deviant behavior, socialization, prevention, stages of development, addictive deviance, delinquent behavior, aggression.

Jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi kunda xulq-atvordagi og‘ishlar, ijtimoiy me‘yorlardan chetga chiqish holatlari va ijtimoiy moslashuv kabi mavzular dolzarb ijtimoiy-psixologik masalalardan hisoblanadi. Chunki insonlardagi bunday xatti-harakatlar nafaqat shaxsning psixik taraqqiyotiga, balki jamiyatning ijtimoiy hayotiga, sog‘lom psixologik muhit yaratishga va barqarorlikni saqlashga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun deviant xulq-atvorning mohiyatini, uni shakllantiruvchi omillarni, ichki va tashqi sabablarni, shaxsga doir xususiyatlarini ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Deviant xulq-atvor deganda jamiyatda qabul qilingan axloqiy, huquqiy, ijtimoiy me‘yorlar va qadriyatlardan chetga chiquvchi, shaxs va jamiyat manfaatlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlar majmui tushuniladi. Jamiyatning xulq-atvor normalariga mos kelmaydigan har qanday harakat deviant sifatida qabul qilinishi va salbiy baholanishi mumkin. Har bir jamiyat o‘zining qonun va qadriyatlar tizimiga ega bo‘lib, shaxslararo munosabatlarda muvofiqlik va umumiylikni shakllantirishga, ular o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga va ijobiy yo‘nalishga olib borishga yordam beradi. Bunday normalarga rioya qilish shaxslar uchun ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatning zarur ajralmas qismi sifatida qaraladi. Ba‘zan insonlar bunday xatti-harakatlarni bajara olmaydi yoki bajarishdan bosh tortishi orqali deviant xatti-harakatlarni sodir etadi. Sotsiologiya va psixologiyada og‘ma xulq-atvor nafaqat jinoyatchilikni, balki jamoat tomonidan salbiy baholanadigan har qanday xulq-atvorni o‘z ichiga oladi. Bunga tajovuzkorlik, yolg‘on gapirish, guruh ichki tartib-qoidalarini buzish, alkogol, giyohvand moddalar yoki turli o‘yinlarga qaramlik, o‘z joniga qasd qilish kabi holatlar kiradi. Bunday xatti-harakatlar nafaqat shaxsga, balki u mansub bo‘lgan ijtimoiy guruhga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Buning natijasida shaxslararo munosabatlar yomonlashuvi, ijtimoiy munosabatlarning buzilishi, jamiyatdagi bo‘shliqlarning kuchayishi, guruhlarga bo‘linish va tabaqalanish yuz beradi. Natijada guruhlarning nizolar ham yuzaga kelishi, ijtimoiy-siyosiy ahvol yomonlashib borishi mumkin. Deviant xulq-atvor jamiyat uchun jiddiy muammo bo‘lganligi sababli uni kamaytirish va oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar, ijtimoiy yordam, ta‘lim, psixologik qo‘llab-quvvatlash va qonuniy nazoratni talab qiladi.

Deviant xatti-harakatlar zamonaviy psixologiya va sotsiologiya nuqtayi nazaridan eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, ijtimoiy me‘yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor talablariga rioya qilish shaxsning ijtimoiylashuvi va jamiyat evolyutsiyasi davomida barqaror rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi. Mazkur me‘yorlardan chetga chiqish shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani buzadi, ijtimoiy mojarolarni kuchaytiradi va turli salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

“Deviatsiya” tushunchasi lotincha *deviatio* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu so‘z “chetga chiqish” yoki “og‘ish” ma‘nosini anglatadi. Deviant xatti-harakatlar psixologik jihatdan jamiyatda qabul qilingan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me‘yorlarga zid bo‘lgan, shaxsning ijtimoiy moslashuvini buzadigan barqaror harakatlar tizimi sifatida qaraladi. Bunday deviantlik nafaqat alohida shaxsda, balki ijtimoiy muhit mahsuli sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ilmiy manbalarda deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi ko‘plab omillar borligi, sabablari turlicha bo‘lishi mumkinligi va har xil yo‘nalishlarda, turli nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilishi ta‘kidlanadi. Shuning uchun deviatsiyani tushunish va tushuntirish uchun bir nechta ilmiy g‘oyalar mavjud.

Masalan, E. Dyurkgeymning “anomiya” nazariyasida jamiyat maqsadlari va ularga erishish vositalari o‘rtasidagi tafovut deviatsiyaga olib kelishi mumkinligi e‘tirof etiladi. Bu inson qonuniy yo‘l bilan o‘z maqsadiga yeta olmaganda, alternativ variant sifatida noqonuniy yo‘llarni sinab ko‘rish mumkinligi bilan tushuntiriladi [6]. A. Banduraning “ijtimoiy o‘rganish nazariyasi”

esa xulq-atvor kuzatish, taqlid va mustahkamlash kabi mexanizmlar orqali shakllanishini tushuntiradi va bu orqali ijtimoiy muhitning deviant xulq-atvor shakllanishida qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi [4]. Hirschning "ijtimoiy nazorat" nazariyasi esa jamiyat bilan aloqalar zaiflashganda deviant xatti-harakatlar ko'payishini tushuntiradi. Buning modeli sifatida kichik guruhlardagi holatlar tahlil qilinadi. Statistika ko'ra, ko'plab jinoyatlar tanishlar, oila a'zolari yoki yaqin munosabatda bo'lgan insonlar orasida yuzaga kelishi kuzatiladi [6]. Psixanalitik yondashuvlarga ko'ra esa deviansiya ichki kurashlar, bostirilgan ehtiyojlar va tushkunliklar bilan bog'liq holat sifatida tushuntiriladi. Shuning uchun ham deviant xulq-atvor ko'p omilli, murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida kompleks tahlillar va yondashuvlarni talab etadi. Shuningdek, shaxsning individual psixologik xususiyatlari ham deviant xulq-atvor shakllanishida muhim omillardan biri hisoblanadi [7].

Xarakter aksentuatsiyasi. Xarakter aksentuatsiyasi bu shaxsda mavjud bo'lgan xarakter xususiyatlarining haddan tashqari kuchaygan, keskinlashgan shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham xarakter aksentuatsiyalari shaxsning ijtimoiy muhitga moslashish jarayoniga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hatto buning natijasida insonda ijtimoiy me'yorlardan og'ish holatlari ham yuzaga kelishi mumkin. Xarakter so'zi yunonchadan tarjima qilinganda belgi, ajratuvchi sifat, xislat ma'nolarini anglatadi, aksentuatsiya lotincha "urg'u" ma'nosini bildiradi. Ular birgalikda xarakter xususiyatlarining, shaxsga xos hislatlarning normadan oshib ketganligini bildiradi.

Aksentuatsiya so'zining fanda qo'llanilishi K. Leonhardning 1964-yilda "Normal va patologik shaxslar" kitobi yozilishi bilan boshlangan. U bu atama orqali patologiya darajasiga yetmagan, lekin xarakter va temperamentning ayrim jihatlari kuchliroq namoyon bo'lishi holatlarini ifodalagan [5]. Xarakter aksentuatsiyalariga ega bo'lgan shaxslar kundalik hayotda normal shaxslar kabi faoliyat yuritadilar, ammo ularda ayrim sohalar va vaziyatlarda normaldan biroz boshqacha harakat qilish, stressli vaziyatlarda, travmatik yoki nizoli holatlarda keskinlik kuchayishi va buning natijasida moslashuv buzilishi kuzatilishi mumkin. Leonhard shaxsda kuzatilishi mumkin bo'lgan aksentuatsiyalarni tiplarga ajratgan va ularga bog'liq xususiyatlar asosida 12 tip haqida ma'lumot bergan. Ulardan eng ko'p uchraydiganlari gipertimik tip, qo'zg'aluvchan tip, namoyishkor tip, beqaror, xavotirli va distimik tiplar hisoblanadi. Bu tiplar ko'p uchrashi bilan bir qatorda deviantlik bilan ham bog'liq tiplar hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, aksentuatsiyaga xos bo'lgan impulsivlik, namoyishkorlik, affektivlik, xavotirchanlikning yuqori bo'lishi shaxsni agressivlikka va deviant xulq-atvorga moyil qilib qo'yishi mumkin. Masalan, namoyishkor tipga kiruvchi insonlar diqqat markazida bo'lishga haddan ortiq moyilligi natijasida antisotsial harakatlarni sodir etish orqali bu ehtiyojlarini qondirishga urinishlari mumkin. Xavotirli va distimik tiplarda esa haddan tashqari ishonchsizlik, yuqori darajadagi pessimizm va tushkunlik natijasida ijtimoiy izolyatsiya, depressiya, autoagressiya holatlari kuzatilishi mumkin. Xarakter aksentuatsiyalari deviant xulq-atvorga to'g'ridan to'g'ri sabab bo'lmasa-da, unga moyillikni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Odatda deviant xulq-atvorning asosiy turlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: agressiya, addiksiya, delinkvent xulq, autoagressiya, ijtimoiy passivlik va boshqalar. Ular turli mezonlar asosida tasniflanadi va ularning oqibatlari turlicha bo'ladi. Shuningdek, ular yo'nalishlari bilan ham farqlanadi. Agressiv xulq — shaxsning boshqalarning ichki dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tajovuzkorlik xususiyati hisoblanadi. Shaxsning o'ziga-o'zi zarar yetkazishi va shu bilan bog'liq holatlar esa autoagressiv deviantlik hisoblanadi. Bu o'ziga zarar yetkazish, o'zini ayblash va hatto o'z joniga qasd qilish darajasiga ham borib yetishi mumkin. Odatda bunday xatti-harakatlar o'zini noto'g'ri baholash, pessimizm, depressivlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yetishmovchiligi sabab yuzaga kelishi mumkin. Addiktiv deviantlik esa sun'iy qoniqish manbalari orqali reallikdan qochish natijasida spirtli ichimliklar, internet, giyohvand moddalar, qimor o'yinlariga qaramlik jarayoni hisoblanadi. Bu jarayonning davom etishi shaxsning ijtimoiy va

psixologik degradatsiyasiga olib kelishi mumkin. Jamiyat tomonidan qat'iy belgilangan qoidalar va huquqiy normalarni buzish hamda ulardan chetga chiqish bilan bog'liq holatlar delinkvent xulq-atvor sifatida baholanadi. Bunday xatti-harakatlar jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortilishga sabab bo'ladi. Ijtimoiy passivlik yuqorida sanab o'tilgan turlardan farqli ravishda yashirin shaklda kechishi mumkin. Ijtimoiy passivlik ba'zi hollarda ijtimoiy izolyatsiyaga ham o'xshash shaklda namoyon bo'ladi. Lekin ijtimoiy passivlikda motivatsiya yetishmasligi, mas'uliyatsizlik va kuchli befarqlik kuzatiladi. Ijtimoiy izolyatsiyada inson munosabatlarda bo'lishni xohlamasa, ijtimoiy passivlikda munosabatlarda ishtirok etmaydi.

Deviant xulq-atvor shaxs rivojlanishining turli yosh davrlarida psixologik, ijtimoiy va biologik omillar bilan bog'liq ravishda shakllanadi. Ontogenez jarayonida shaxsning ehtiyojlari, motivlari, ijtimoiy rollari va muhit bilan munosabatlari o'zgarib boradi. Shuning uchun ham deviant xulq-atvorni yosh bilan bog'liq xususiyatlar asosida ham tahlil qilish talab etiladi. Yosh davrlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan og'ishlarni erta aniqlash va korreksiya qilish jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishga katta yordam berishi mumkin.

Deviant xulq-atvor turli yosh davrlarida turlicha shaklda va turli omillar ta'sirida namoyon bo'lishi mumkin. Deviant xatti-harakatlar maktabgacha yosh davridan boshlab namoyon bo'la boshlaydi. Bu davrda bolalarning xulq-atvori ko'p jihatdan atrof-muhit va oilaviy tarbiya asosida shakllanadi. Bolalarda deviant xulq-atvor aniq antisotsial ko'rinishda namoyon bo'lmasada, hissiy va xulq-atvor muammolari sifatida ko'rinadi. Bu injiqlik, agressivlik, yig'loqilik, qo'rquv, erkalik, itoatsizlik kabi shakllarda bo'ladi. Maktabgacha yosh davrida asosiy faoliyat o'yin faoliyati bo'lganligi uchun bolaning ayrim agressiv xatti-harakatlari o'yin sifatida baholanish holatlari kuzatilishi mumkin. Bu davrdagi shaxsiy xususiyatlar ota-onalar ta'sirida shakllanadi va keyingi davrlarda deviant xatti-harakatlarning yuzaga chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Oilaviy nizolar va hissiy sovuqlik bolani normalardan chetga chiqish holatlariga olib keladi.

Keyingi davr kichik maktab yoshi davri hisoblanadi. Bu davr ijtimoiy muhitning kengayishi, yangi ijtimoiy guruhga qo'shilish davridir. Bola maktabga borish orqali yangi jamoaga moslashadi, ijtimoiy qoidalarni o'zlashtira boshlaydi. Bu davrda o'qish faoliyati asta-sekin asosiy o'ringa chiqa boshlaydi, buning natijasida unga asosiy ta'sir etuvchi shaxs o'qituvchi-pedagoglar bo'ladi. Bu davrda ta'lim jarayoni bilan bog'liq muvaffaqiyatsizliklar, pedagoglar va tengdoshlari bilan yuzaga keladigan nizolar bolaning o'ziga nisbatan bahosining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Ontogenezning bu bosqichida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan deviant xulq-atvor odatda o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Odatda, ijtimoiy guruhga moslasha olmaslik, yolg'on gapirish, dars qoldirish, dars vaqtidagi intizomsizliklar kabi xatti-harakatlar orqali namoyon bo'ladi. Bu davrda pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash bolalar uchun muhimdir.

O'smirlik — shaxs taraqqiyotining o'tish davri hisoblanadi. Shu bilan birga, deviant xulq-atvorga eng ko'p moyillik kuzatiladigan va bunday xatti-harakatlar shakllanishining eng xavfli hamda murakkab bosqichi hisoblanadi. Bu davrda shaxsda nafaqat ijtimoiy-biologik omillar, balki fiziologik va psixologik omillar natijasida ham normadan og'gan xatti-harakatlar kuzatiladi. Gormonal o'zgarishlar, emotsional beqarorlik, mustaqillikka va tan olinishga bo'lgan ehtiyojlar, tengdoshlar ta'sirining kuchayishi ushbu yosh davriga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Bu davrda o'smirda shaxsiy "Men" shakllanadi va natijada kattalarga, ularning nazoratiga qarshilik holatlari kuzatiladi. Shu bilan birgalikda o'smirda kattalik hissi shakllana boshlaydi. Ontogenezning shu bosqichiga kelib insonda agressivlik va bezorilik holatlari kuchayadi, addiktiv xulq-atvorga moyillik yuzaga chiqadi, autoagressiv xatti-harakatlar, suitsidal holatlar va hatto delinkvent harakatlar ham shu davrda yuzaga kelishi mumkin. A. E. Lichko o'smirlikni xarakter aksentuatsiyalari kuchayib, deviantlikka moyillik ortadigan davr sifatida izohlaydi. Uning fikricha, o'smirlarda shaxs tuzilmasi hali barqarorlashmaganligi sababli xarakter belgilarining keskinlashuvi tez-tez kuzatiladi. Bu esa deviant xulq-atvor shakllanishi uchun psixologik zamin yaratadi.

Rivojlanishning keyingi bosqichlarida antisotsial xulq-atvor depressiya, turli stressli vaziyatlar, ijtimoiy talablarning haddan ortiq balandligi, iqtisodiy qiyinchiliklar, oilaviy nizolar, tushunmovchiliklar, pessimizm va holatni noto'g'ri baholash ta'sirida yuzaga kelishi mumkin. U addiktiv qaramliklar, antisotsial guruhlariga qo'shilish, huquqbuzarliklar, ijtimoiy passivlik va ijtimoiy izolyatsiya shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

Xulosa. Deviant xulq-atvor yosh davrlarining turli bosqichlarida shu davrga xos shakl va mazmunga ega bo'ladi. Bolalikda bu emotsional-xulqiy buzilish shaklida bo'lsa, keyingi davrlarda ijtimoiy xavfli shakllarda namoyon bo'la boshlaydi. Shu sababli deviant xulq-atvorga moyillikni erta aniqlash va diagnostika qilish, oilaviy, pedagogik hamda psixologik profilaktika va korreksiya ishlarini amalga oshirish ijtimoiy xavf darajasini kamaytiradi. Deviant xulq-atvorning oldini olish kompleks yondashuvlarni talab qiladi. Bunday yondashuvlar shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlab, deviant xatti-harakatlarning oldini olishga samarali yordam beradi. Deviant xulq-atvorni chuqur o'rganish, uning sabab va mexanizmlarini aniqlash hamda ilmiy asoslangan profilaktik choralarni ishlab chiqish sog'lom, ijtimoiy faol, mas'uliyatli shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Змановская Е. В. Девиантология: психология отклоняющегося поведения. — М.: Академия, 2018. — 288 с.
2. Кон И. С. Психология ранней юности. — М.: Просвещение, 1989. — 255 с.
3. Akers R. L. Social learning and social structure: a general theory of crime and deviance. — Boston: Northeastern University Press, 1998. — 444 p.
4. Bandura A. Social learning theory. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977. — 247 p.
5. Шнейдер Л. Б. Девиантное поведение детей и подростков. — М.: Академический проект, 2015. — 336 с.
6. Леонгард К. Акцентуированные личности. — М.: Эксмо, 2010. — 544 с.
7. Hakimova I. M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi: o'quv qo'llanma. — T.: O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2013. — 143 b.
8. Otajonov M. Psixoanaliz asoslari: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. — T.: O'zbekiston, 2004. — 144 b.